

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KRITIK FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

Zokirova Ma’suma Qahramon qizi

Turan International University

Gumanitar fanlar va pedagogika

kafedrasи o‘qituvchisi

Isaqova Ruxshona Abdumо‘min qizi

Turan International University

Boshlang‘ich ta’lim

yo ‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kritik fikrlashni rivojlanirishning ahamiyati, uni aniqlash usullari, shuningdek, bu ko‘nikmalarni shakllantirishda kuzatish metodining tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik-psixologik sharoitlar, samarali texnologiyalar, dars jarayonida va darsdan tashqari faoliyatda tanqidiy fikrlashni rivojlanirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, tanqidiy fikrlash, kuzatish metodi, muammoli ta’lim, tafakkur, ijodkorlik, o‘quv jarayoni.*

Аннотация: В данной статье рассматривается значимость развития критического мышления у учащихся начальных классов, а также методы его выявления и формирования. Особое внимание уделяется наблюдению как эффективному педагогическому методу. Также представлены психолого-педагогические условия, технологические подходы и предложения по развитию критического мышления в учебной и внеучебной деятельности.

Ключевые слова: *Начальное образование, критическое мышление, метод наблюдения, проблемное обучение, мышление, креативность, учебный процесс.*

Abstract: This article discusses the importance of developing critical thinking in primary school students and examines the methods used to assess and enhance it. Special emphasis is placed on the observation method as an effective pedagogical tool.

Keywords: *Primary education, critical thinking, observation method, problem-based learning, thinking, creativity, learning process.*

Bugungi globallashuv jarayonida o‘sib kelayotgan yosh avlodda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammolarga tanqidiy yondashish va oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlanirish zamon talabi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kritik fikrlashni shakllantirish va rivojlanirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Tanqidiy fikrlash (inglizcha "critical thinking") — bu har qanday hodisa va tushunchalarni mantiqiy tahlil qilish, ular haqida xolis va asosli xulosalar chiqarish, hamda bu natijalarni muayyan vaziyatlarda qo'llashga imkon beradigan fikrlash jarayonidir. Tanqidiy fikrlash — nima qilish kerak yoki nimaga ishonish kerakligini aniqlashga qaratilgan samarali, ongli fikrlash usulidir. "Tanqidiy fikrlash" atamasi dastlab faylasuf Jon Dewey tomonidan ishlatilgan. U bu tushunchani ko'proq "reflektiv fikrlash" deb atagan bo'lib, uni "har qanday fikr yoki taxmin qilingan bilimni, uning asosi va oqibatlarini sinchiklab o'rganish" sifatida izohlagan.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash uchun ularning muloqotga kirishish holatlarini tahlil qilish juda muhim. Bu borada kuzatish usuli keng qo'llanilib, ayniqsa o'quvchilarining fikrlash qobiliyati, muloqot madaniyati va tafakkur jarayonini baholashda samarali vosita hisoblanadi. Kuzatish metodikasi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashi, aqliy o'sishi, fikr yuritishdagi o'zgarishlari, xulosa chiqarishdagi mustaqilligi va faol pozitsiyasi o'rganiladi. Bu yoshdagi o'quvchilarining tanqidiy fikrlashlari, asosan, ularning asab tizimining faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Bu holatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Fikr bildirishda duch kelgan muammolarni hal qila olish;
2. Maqsad sari qat'iyat bilan intilish;
3. Uzoq muddatli, kam qiziqarli vazifalarni ham bajara olish;
4. Turli o'quv holatida qat'iy fikr bildira olish;
5. Munozara jarayonlarida mustaqil ishtirok etishga intilish;
6. Yangi vaziyatda o'zining ilgari noma'lum jihatlarini ko'rsata olish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun quyidagi muhim savollarga javob topish lozim:

1. Qanday pedagogik va psixologik sharoitlarda tanqidiy fikrlash rivojlanadi?
2. Ushbu jarayonga qanday talablar qo'yiladi?
3. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda qanday texnologik yondashuvlar samarali?

"O'qish savodxonligi", "Ona tili savodxonligi", "Tabiiy fanlar" kabi fanlar va darsdan tashqari tadbirlar orqali o'quvchilarda kritik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Bunda bir qator metodlardan foydalanish o'rinni.

"Uchinchisi ortiqcha?" metodi

"Uchinchisi ortiqcha?" metodi – bu mantiqiy tafakkurni rivojlantirish va tahliliy fikrlashni shakllantirishga yordam beradigan usullardan biridir. Bu metod orqali o'quvchilar yoki ishtirokchilar berilgan predmetlar yoki tushunchalar orasidan ortiqchasini ajratib, sababini izohlashlari kerak. Mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmasini oshiradi. O'quvchilarining faolligini oshiradi va bahs-munozaraga undaydi.

O'quvchilarga uch yoki undan ortiq so'z, rasm yoki tushunchalar beriladi. Ular ichidan bittasi yoki bir nechtasi qolganlariga mos kelmasligi kerak. Ishtirokchilar aynan qaysi element ortiqcha ekanligini aniqlashadi va o'z qarorlarini asoslab berishadi.

Muammoli vaziyatlar yaratish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, qiziquvchanlik, mantiqiy mulohaza yuritish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish mumkin. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun maxsus metodik yondashuvlar, didaktik topshiriqlar majmui va samarali pedagogik vositalarni ishlab chiqish zarur. O'quvchilarni o'z fikriga ishonch hosil qilishga o'rgatish, ularning faol ishtirokini ta'minlash va turli fikrlarni qadrlashga o'rgatish ham muhimdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarda kritik fikrlashni shakllantirish uchun maxsus tizimli yondashuv zarur. Kritik fikrlash – bu o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ijodiy muloqotni ta'minlaydigan samarali strategiyalardir. O'quvchilarga o'z fikr va g'oyalarini baholash, mustaqil xulosa chiqarish, tavakkalchilik va ochiq muloqotga tayyorlikni o'rgatish kerak. O'qituvchi mashg'ulot davomida turfa fikrlarni rag'batlantiruvchi savollar, muammoli vaziyatlar va faol o'qitish usullaridan foydalanishi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. M. Jalilovna. Ta'lif va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali Jild: 04, Nashr: 02-fevral – 2024 ISSN 436b.
2. Maxamatova, M. J. (2022). Pedagogical technology as an important factor for the development of critical thinking. theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (5), 764-768.
3. Абишев А., Хамидов А.А., Туманова Т.М. Категории мышления и индивидуальное развитие. – Алма-Ата, 1991. – 215 с.
4. Xodjayeva F.O. O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish va uning muhim jihatlari. /"Zamonaviy ta'lif" ilmiy-amaliy ommabop jurnali, 2017-yil, № 6, 43-47 b.